


B.B. KO'KIYEV K.G. MALIKOV

ARXITEKTURA ELEMENTLARINI LOYIHALASH

DARSLIK




CHIRCHIQ 2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

DARSLIK

B.B.KO'KIYEV, K.G.MALIKOV

ARXITEKTURA ELEMENTLARINI LOYIHALASH
(darslik)



CHIRCHIQ - 2023

UO'K 73/76;72
KBK 85.1;85.11
K-41

B.B.Ko'kiyev, K.G.Malikov / Arxitektura elementlarini loyihalash (darslik) / Chirchiq, "Olmaliq kitob business", 2023 y. 180 b.

ANNOTATSIYA

Mazkur "Arxitektura elementlarini loyihalash" nomli darslikda Arxitektura elementlarini loyihalash fanining Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekistonda me'morchilikni rivojlanishi tarixi, naqsh va girixlarni kelib chiqishi hamda qadimiy binolarni o'ziga xos xususiyatlari, rang turlari, talabalarga tavsiya etiladigan turli xildagi namunalar, grafik topshiriqlar uchun variantlar ishlanmasi hamda tayyor o'simlik va binolarning andozalari, imitatsiya va boshqa mavzularga tegishli ma'lumotlar, savolnomalar, fanga oid izohli lug'at va talabalar o'z bilimlarini aniqlashga mo'ljallangan test savollari hamda talabalar mustaqil grafik ish bajarishlari uchun topshiriqlar to'plamini o'z ichiga olgan bo'lib, u 60111200-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'limi yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Shu bilan birga mazkur o'quv qo'llanmadan Arxitektura elementlarini loyihalash fani o'qitiladigan barcha oliy ta'lim muassasalari talabalari ham foydalanishlari mumkin.

В данном учебнике «Проектирование архитектурных элементов» рассказывается история развития науки о проектировании архитектурных элементов в Средней Азии, особенно в Узбекистане, происхождение рисунков и рисунков, а также особенности древних построек, виды цветов, различные образцы, рекомендуемые учащимся, разработка вариантов графических заданий и готовых моделей растений и зданий, информация по подражанию и другим темам, анкеты, толковый научный словарь и контрольные вопросы, предназначенные для определения учащимися своих знаний и для учащихся. Выполнение самостоятельной графической работы содержит комплекс заданий, который предназначен для студентов бакалавриата по направлению 60111200-Изобразительное искусство и инженерная графика.

В то же время данное учебное пособие может быть использовано студентами всех высших учебных заведений, где преподается наука проектирования архитектурных элементов.

In this textbook, "Designing Architectural Elements", the history of the development of the science of designing architectural elements in Central Asia, especially in Uzbekistan, the origin of patterns and patterns, as well as the characteristics of ancient buildings, types of colors, various samples recommended to students, development of options for graphic assignments and ready-made models of plants and buildings, information on imitation and other topics, questionnaires, an explanatory dictionary of science and test questions designed for students to determine their knowledge and for students to perform independent graphic work contains a set of assignments, which is intended for students of the undergraduate course 60111200-Fine Arts and Engineering Graphics.

At the same time, this study guide can be used by students of all higher education institutions where the science of designing architectural elements is taught.

Muallif:

B.B.Ko'kiyev - Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Muhandislik va kompyuter grafikasi" kafedrasini mudiri, dotsent v.b., p.f.f.d. (PhD).

K.G.Malikov - Nizomiy nomidagi TDPU "Muhandislik grafikasi va uni o'qitish metodikasi" kafedrasini dotsent v.b., p.f.f.d. (PhD)

Taqrizchilar:

X.A.Turayev - Termiz davlat universiteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasini mudiri, dotsent v.b., p.f.f.d. (PhD).

X. E. Sultanov - Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasini mudiri, dotsent, p.f.f.d. (PhD)

ISBN 978-9910-9587-9-3

© «Olmaliq kitob business» nashriyoti, Toshkent, 2023 y.

© KO'KIYEV B.B.

KIRISH

Bugungi kunga kelib, "Arxitektura elementlarini loyihalash" fani o'quv rejani umumkasbiy fanlar blokiga qo'shilganligi va ushbu fanga talabalar uchun adabiyotlar ta'minotini boyitish maqsadida arxitektura elementlarini loyihalash fanidan o'quv qo'llanma yaratish ham muhim ahamiyatga egadir.


Ma'lumki, qurilish madaniyati bizning hududimizda juda qadimdan boshlangan bo'lib arxeologik qazilmalar natijalariga asoslangan holda miloddan avvalroq mustahkam qal'a, shaharlar qurilgan, turli kanallardan sug'orish orqali yuqori hosil olinganligi guvohi bo'lamiz.

Mustaqillikka erishganimizdan boshlab yurtimizda ota-bobolarimiz tomonidan barpo etgan tarixiy yodgorliklar ta'mirlanmoqda, mutloq buzilib ketganlari qaytadan tiklanmoqda hamda olimlarimiz tomonidan har bir majmuani tahlil qilinib undagi yozuvlar, bitiklar va shu bilan birga binolarni mohirona tarzda qurilganligini ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi kunda Respublikamiz Prezidenti tomonidan turizimni rivojlantirish maqsadida Respublikamizning barcha hududlarida ko'plab zamaonaviy qurilishlar olib borilmoqda. Yangi qurilayotgan binolar jahon standartlariga mos ravishda barpo etilmoqda, bunday qurilishlar ko'lamini yangi yer usti metrolarimiz, sport komplekslari, ko'priklar, ma'muriy binolar, bozor, ofislar va fuqorolar yashash uchun qulay turar joylar, shaharlarimizning ko'rki, balki dunyo miqyosida Respublikamizning rivojlanayotgan davlatlar qatoriga qo'shilishiga kafolat beradigan omillardan biri hisoblanadi.

Mazkur o'quv qo'llanma "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi talabalari uchun "Arxitektura elementlarini loyihalash" fanidan grafik topshiriqlar uchun variantlar ishlanmasi hamda tayyor o'simlik va binolarning andozalari, imitatsiya va boshqa mavzularga tegishli ma'lumotlar, savolnomalar, fanga oid izohli lug'at va talabalar o'z bilimlarini aniqlashga mo'ljallangan test savollari hamda talabalar mustaqil grafik ish bajarishlari uchun topshiriqlar to'plamini o'z ichiga olgan.

I BOB. SHARQ MEMORIY OBIDALARI




1.1. Memoriy obidalarining qisqacha tarixi

O'zbekiston mustaqillikka erishgach ajdodlarimizdan qolgan boy madaniy merosga e'tibor kuchaydi shu qatorda tarixiy yodgorliklar davlat nazoratiga olindi va sharqning memorchilik san'ati uzoq tarixga borib taqalishini ko'rishimiz mumkin, shu bois tarixiy obidalarni shakllantirish uchun talabalarning diqqat-e'tiborini, birinchi navbatda xalq amaliy-badiiy san'atini o'rganishga qaratmog'amiz lozim. O'rta Osiyo xalqlari boy madaniy, ma'naviy o'tmishga ega bo'lib, asrlar davomida mavjud tabiiy xom ashyolarni inobatga olgan holda ma'naviy boy, yashash sharoitiga jizhatidan qulay, tantanavor, ko'rkam muhit yaratish yulida tinimsiz izlanishgan. Mahalliy materiallar xususiyatini bilishga, buyumlarning shaklini, naqshlarning tuzilishi va ma'nolarini, ranglarning ishlatilish joyini o'rganishga zamin yaratadi.¹

Arxeologlar Xorazmda milodning III asriga doir Tuproqqala saroyini kavlashganda yer qa'ridan uchta har xil uslubda bezatilgan xonani topishgan va ulardagi bezaklar xonalarning bir paytlar shohlar zali, raqqoslar zali, askarlar zali bo'lganligini ifodalaydi. Askarlar zali kishi diqatini o'ziga tortadi. Xona atrofi supa bilan aylantirilgan. Supada qo'chqor shoxiga o'xshash shakl, ya'ni volyutalar joylashtirilgan. Valyutalar oralig'ida katta hajmdagi sarkarda haykali joylashtirilgan. Har qaysi volyuta ustida esa kichikroq hajmdagi ikkitiqdan qurollangan askar haykallari o'rnatilgan (1-rasm).²

¹ D.A. Nozilov O'rta osiyo dizayni tarixidan. "O'zbekiston" 6-bet 1998 yil.

² Qo'llanmaga kiritilgan fotosurat, chizma, rasm, rekonstruksiya va boshqa manbalardan olingan rasmlar nusxasini ham muallifning o'zi ishlagan. Boshqa manbalardan olingan fotosuratlarining mualliflari aniq berilmaganligi sababli ularning nomlarini qayd etilmagan, lekin adabiyotlar nomini qo'llanmaning "Adabiyotlar" bo'limiga kiritilgan.



1-rasm. Xorazm. Tuproqqa'la saroyining askarlar zali (chizma-ta'miridan nusxa)

Saroylardagi qabulxona va mehmonxonalar atrofi pol sathidan ko'tarilgan supa bilan aylantirilgan. Xonaga kirgan kishi xonaning istalgan qismidan supaga chiqib o'tirishi mumkin. Xonaning o'rta qismidagi maydoncha oyoq kiyimini yechishga mo'ljallangan. To'y-hashamlarda mehmonlar xonaning to'rt devori bo'ylab yo'nalgan supada o'tirishgan. O'rtada esa raqqosalar o'yinga tushishgan, mehmonlar oldiga yozilgan dasturxon atrofida bir qatorda o'tirib o'rtadagi bazmni tomosha qilishgan. Shunday epizodni Bolaliktepa saroyi xonalaridan birida ko'ramiz. Xonada 28 nafar mehmon va mezbon juft-juft o'tirishibti, juftlarning birida erkak kishi yonidagi ayolga engashib, unga allanimalar deyapti, ularning yonida bir erkak ayolga may quyilgan qadahni uzatayapti. Bu manzara Bolaliktepa qasri mehmonxonasidagi devoriy suratdagi, rasmda personajlar xarakter,

kompozitsiya jihatidan bitta syujetni, ya'ni mehmondorchilikni ifodalaydi (2-rasm).



2-rasm. Bolalik tepa saroyidagi V-VIII asrlardagi oid devoriy surat (L.I.Albaum rekonstruksiyasidan nusxa)

Varaxsha saroyi (VII-VIII asrlar) shohi qabulxonasi "Qizil xona" deb nomlangan. Saroy devori qizil rangga bo'yalgan. Devor yuzasi uzunasiga hamma tomonidan uch qismga bo'lingan. Qismlar balandligi har xil bo'lib birinchi qism 1, 5-2 metr, o'rta qism bir metrga yaqin, uchinchi 3-5 metr balandlikka ega. Birinchi qismda fil ustida borayotgan qahramonlarning qoplonlarga nayza urayotganlari tasvirlangan, ikkinchi qavatda fil, ot va yirtqich hayvonlarning bir tomonga qadam tashlab borishlari, uchinchi qavatda daraxt va qanotli tuyalar surati tasvirlangan. Xona atrofi bo'ylab supa o'rnatilgan va xona shifti o'rta qismi to'sinlarning bir necha qatorda bir-biriga nisbatan ko'ndalang joylashtirilishi natijasida gumbaz shaklini olgan hamda gumbaz o'rtasida katta tuynuk qoldirilgan.

Xona to'rida to'rt tomoni ochiq hashamatli ko'shk mavjud bo'lib kushkning yoysimon ravoqlari to'rtta kariatida bilan ko'tarilgan. Kariatidalar qanotli ayol siymosini ifodalab ushbu ko'shk ostida shoh hashamatli taxtda o'tiribdi va ko'shk to'ridagi supaning o'ng qismiga baland chiroq qo'yilgan hamda supaga to'shalgan gilamda o'tirgan shoh xattoti yangi bitilgan farmonni o'qiyotgani tasvirlangan. Xona devorlaridagi qizil zaminda ishlangan suratlar